

GERMENEVTIKA TUSHUNCHASI

OXUning 1-kurs Magistranti

Sabirova Fatimajon

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi germenevtika tushunchasi va uning xususiyatlari chuqurroq o'rganilgan. Germanevtika o'zbek adabiyotiga qachon kirib kelgani va qanday ta'siri borligi haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlari: Germanevtika, tushunish va tushuntirish, talqin qilish, Sharq va G'arb germenevtikasi, o'zbek adabiyotiga ta'siri, adabiy va diniy matnlar. Gadamer fikri.

Аннотация: В данной диссертации более подробно рассматривается понятие герменевтики и её особенности. Она позволяет понять, когда герменевтика вошла в узбекскую литературу и каково было её влияние.

Ключевые слова: Герменевтика, Понимание, объяснение, интерпретация, Восточная и Западная герменевтика, влияние на узбекскую литературу, литературные и религиозные тексты. Мысли Гадамера

Abstract: This thesis explores the concept of hermeneutics and its characteristics in more depth. It provides an understanding of when hermeneutics entered Uzbek literature and what its impact was.

Key words: Hermeneutics, Understanding, explanation, interpretation, Eastern and Western hermeneutics, influence on Uzbek literature, literary and religious texts. Gadamer's thou

Inson borliqni aql va qalb bilan qabul qilarkan, farosat, zakovat, fahm, idrok kabi rasional kategoriyalardan farqli ravishda olamni ruhiy-psixologik, hissiy-emosional tushunib etishi, his qilingan dunyo ranglarini izohlash germenevtika fanining asosiy omili hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda germenevtika badiiy matnlarning turli talqini orqali badiiy tafakkur qirralarini ochib berish va umuman badiiy asar matnini, binobarin, matnda aks etgan begona inson ichki dunyosi, uning qalb manzaralarini, jamiyatdan farqli o'laroq o'ziga xos dunyosini turli shakllarda tushunib etish usuli hisoblanadi.

Adabiy germenevtika matn arxitektonikasi tafsivi, paradigmalarini tushunish, asar zamiriga singdirilgan ma'no-mohiyat, inson ichki dunyosi orqali aks etgan badiiy-falsafiy g'oya emosional-estetik ta'sirining rang va darajalarini ham aniqlaydi

Adabiy germenevtika XX asrlarda dastlab G'arb mamlakatlarida shakllangan yo'nalish va metodlar birligi bo'lib, badiiy matnlarni turli usullarda talqin qilish orqali har xil ma'molarni aniqlashga qaratilgan edi. Bunday tadqiqot usullarining tarixi Aleksandriya filologiya maktabi faoliyati bilan boshlanadi. Shuningdek, XVII-XX asrlarda Shekspir asarlari matn xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan germenevtik tadqiqotlar yaratildi.

Adabiy germevntika F.D.E.Shleyermakser,V.Diltey,X.G.Gadamer kabilar tomonidan ilgari surilgan falsafiy germevntika ta'sirida shakllanadi.Ularning ayrim tadqiqotlarida badiiy matn tahlili ham kuzatiladi.

Filologiya fanida matnni tushunish mohiyati haqidagi masala eng muhim ,dolzarb va murakkab muommalaridan biridir.

Tushunish va tushuntirish : Germevntikada matnni faqat o'qish emas, balki chuqur tadqiqotdir. Tushuntirish esa ushbu anglangan ma'noni boshqa narsaga yetkazishni anglatadi. Tushuntirishning bosh maqsadi - o'rganilayotgan predmetning mohiyatini, rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlashdan iborat.Talqin : Talqin matnning yuzaki ma'nosidan tashqariga chiqib, undan yashirin, ramziy yoki kontekstual ma'nolarini ochib berishni o'z ichiga oladi. Tarjimonlar ham matnning mazmunini maqsadli tilga o'tkazishda germevntik taxlildan qarorlar.Tarjimonlar ham matnning mazmunini maqsadli tilga o'tkazishda germevntik tahlildan unumli foydalanishgaSharq germevntikasi :³Bunda Qur'oni Karim tafsirlari,Hadisi sharif sharhlari bilan bog'liq bo'ladi.Musulmon- sharq dunyosida ko'plab tafsirlar maydonga kelgani haqiqatdir.Sharq adabiyoti, tasavvufiy she'riyatda germevntika matnlarning ezoterik (ichki, yashirin) xavfsiz ochib berish san'atidan alohida o'rin tutadi. Bunda ramziy va gnostik ma'nolar, ilohiy ishq va majoziy obrazlar (masalan, Boborahim Mashrab g'azallarida) muhim rol o'ynaydi.

O'zbek adabiyotiga ta'siri.Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida jahon ilm-fanidagi eng ilg'or nazariy-falsafiy mezonlardan istifoda etib,G'arb va SHarq adabiyotshunosligini sintezlashtirib ,o'ziga xos yo'l tanlash uchun imkoniyat paydo bo'ldi.

Navoiy asarlari va tasavvufiy she'riyatni o'rganishda germevntik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu asarlar chuqur falsafiy va axloqiy g'oyalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi davrda ham o'zbek adabiyotida texnika germevntikaning yangi parametrlari belgilanib, badiiy asarni ko'rsatishning yangidan ochib berilmoqda.

Germevntika asosida ish ko'rilganda matn mohiyati soxtalashtirilib,qandaydir o'tkinchi mafkuraviy manfaatlarga qurbon qilinmaydi.Badiiy asarni har kim o'zicha o'z dunyoqarashiga mos bilimi va hayotiy tajribasi darajasida tushunadi,his etadi.Asarda yo'q narsa izlanmaydi,bor narsa berkitilmaydi.

Germevntika adabiyotshunosga adabiy matni talqin etishning nazariy-metadologik usullarini ko'rsatadi Germevntik doira vositasida matnning "ichiga kirishi"mumkin bo'ladi. Xususan, Diltey tushunishni matn

muallifning ma'naviy dunyosiga kirish sifatida tavsiflagan bo'lsa, Xaydegger uchun tushunish insonning borliqqa o'ziga xos munosabati. insonning dunyoda mavjud bo'lish usulidir. Gadamer fikriga ko'ra, o'tmish

madaniyatini tushunish talqin qiluvchining o'zini tushunishi bilan uzviydir. Shu sababli tushunish predmeti muallif matnga joylagan ma'no emas, balki mazkur matn orqali anglab yetilishi lozim boigan moddiy mazmun («ishning mohiyati») tashkil etadi. Bunda, Gadamer fikriga ko'ra, har qanday tushunish til muammosidir: unga «til mediumi»da

³ BahodirKarim.Abdulla Qodiriy va Germevntik va Toshkent Akademnashr2014

erishiladi yoki erishilmaydi) va isbotlashni taqozo etmaydi. Bugungi kunda tushunishning uch asosiy turi farqlanadi:

A) Dialogda til vositasida aloqa qilish jarayonida yuzaga keladigan tushunish. Tushunish yo tushunmaslik natijasi bu yerda suhbatdoshlar o‘z so‘zlariga qanday ma’no yuklashiga bog‘liq.

B) Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish bilan bog‘liq tushunish. Bu yerda o‘zga tilda ifodalangan ma’noni ona tili so‘zlari va gaplari yordamida ifoda etish va saqlash nazarda tutiladi.

V) Matnlarni, badiiy adabiyot va san’at asarlarini, shuningdek odamlarning turli vaziyatlardagi qilmishlari va harakatlarini talqin qilish bilan bog‘liq tushunish. Bu yerda ma’noni intuitiv tushunishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Bu tushunishning birinchi darajasi. Tushunishning ikkinchi darajasi tadqiqotning boshqa, xususan: mantiqiy-metodologik, aksiologik, kulturologik vosita va metodlarini jalb qilishni taqozo etadi. Tushunishning ikki muhim jihati mavjud:

1. Germenevtik doira tamoyili tushunishning birinchi muhim jihati

hisoblanadi. U tushunishning siklik xususiyatini aks ettirib, u tushunish va tushuntirishni bog‘laydi: nimanidir tushunish uchun uni tushuntirish kerak aksincha. Mazkur o‘zaro aloqa butun bilan qismning doirasi sifatida ifoda etiladi: butunni tushunish uchun uning alohida qismlarini tushunish kerak, alohida qismlarni tushunish uchun esa butunning ma’nosi haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim Masalan, so‘z - gapning qismi, gap-matnning qismi, matn - madaniyat unsuri va sh.k

2. Butun va qism dialektikasi ikkinchi muhim jixati, zero unda tafakkur qismlardan avalgi butunga emas, balki o‘z qismlarining bilim bilan boyigan yangi boshqa butunga qaytadi. Ya’ni germenevtik doira «olmaxon g‘ildiragi» emas, unda bir matnga ikkinchi marta murojaatetilganda albatta yangi ma’no tushiniladi. Germenevtik doira dialektik xususiyatga ega: unda to‘liq va chuqur tushunishdan yanada to‘liqroq va chuqurroq tushunishga tomon harakat sodir bo‘ladi, mazkur harakat jarayonida tushunishning yanada keng ufqlari namoyon bo‘ladi. Tushunishni hozirgi davrga bog‘lash kerakmi?, degan savolga ikki xil javob berish mumkin.

A) Kerak emas, bu qarashga ko‘ra, matnni muvofiq tarzda tushunish unga muallif yuklagan ma’noni ochib berishni nazarda tutadi. Ya’ni muallif yuklagan ma’noni hech qanday qo‘shimcha va o‘zgartirishlarsiz mumkin qadar sof shaklda aniqlash lozim. Lekin amalda bunday bo‘lmaydi, zero, har bir davr matnga (masalan, san’at asarlariga) o‘z mezonlari bilan yondashadi.⁴

B) Kerak. Bunda tushunish jarayoni muqarrar ravishda tushunishga harakat qilinayotgan narsaga qo‘shimcha ma’no yuklash bilan bog‘liq Binobarin, matnni muallif qanday tushungan bo‘lsa, shunday tushunishning o‘zi yetarli emas. Demak, tushunish ijodiy jarayon va muallif yuklagan ma’noni aynan aks ettirishnigina emas, balki unga tanqidiy baho berish, ijobiy jihatlarini saqlab qolish, ma’noni hozirgi

⁴ Shermuhamedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Toshkent, Axborot texnologiyalari 2014

20-Yanvar, 2026-yil

voqelikning mazmuni bilan boyitishni nazarda tutadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodir Karim.Abdulla Qodiriy va Germanivtik tafakkur.Toshkent Akademnashr.2014.
2. Shermuhamedova N.Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.Toshkent, Axborot texnologiyalari.2014.
- 3.Dilmurod Quronov.Adabiyotshunoslikga kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti
- 4.M.Tojiboev,Sh.Yusupova,E.Bo'riyeva.ADABIY GERMENEVTIKA VA MUMTOZ BADIY TIL.TOSHKENT ‘UNIVERSITET’2013.

Global
Science
Publication